

# Diniy ekstremizm va terrorizm - jamiyat taraqqiyotiga tahdid



## Diniy ekstremizm va terrorizm – jamiyat taraqqiyotiga tahdid

Bugun Termiz Davlat Universiteti talaba yoshlari ishtirokida Ekstremistik va terroristik tashkilotlarning g'arazli niyatlari va muqaddas islom dining asl mazmun-moxiyati mavzusida ma'naviy ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir ishtirokchilarga ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi ta'kidlandi. Maruzachilar tomonidan bugun internet insoniyat turmush tarzi va hayotining ajralmas qismiga aylangan ayni davrda internetning ijtimoiy tarmoqlari orqali nafaqat yaxshi maqsadda, balki odamlarning ongu tafakkurini buzadigan, davlatlardagi tartibsizliklarni amalga oshirish bilan birga, butun insoniyatning buguni va kelajagiga tahdid soluvchi o'z g'oyalarini tarqatish bilan jamiyat taraqqiyotiga

salbiy ta'sir o'tkazuvchi xavf-xatar bo'lib xizmat qilayotganligini alohida ta'kidlab o'tishdi.

Seminar yakunida ishtirokchilar din va diniy munosabatlar, islom madaniyatining asl qadriyatlari, farzand tarbiyasida islom dinining o'rni va boshqa shu kabi o'zlarini qiziqtirgan barcha masalalar yuzasidan mutaxassislardan batafsil javoblar olishdi.

Tadbir da Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan tavsiya etilgan videorolik namoyishi bo'lib o'tildi.




Image not found or type unknown

